

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH SIFATI MONITORINGI: XORIJIY TAJRIBA

Xasanov Sirojiddin Najmiddinovich

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablarida o'qitish sifati monitoringini takomillashtirishda xorijiy mamlakatlar tajribasining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, monitoring, umumta'lim maktablarida o'qitish tizimi, xorijiy tajriba

Dunyoning yetakchi ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, ta'limni rivojlantirish markazlarida olib borilayotgan tadqiqotlarda umumta'lim maktablarida o'qitish sifati monitoringini takomillashtirish, egallangan pedagogik-psixologik bilimlar asosida innovatsion, kreativ salohiyatini oshirish masalalari asosiy o'rinni egallaydi. Jumladan, AQShning Massachusetts texnologiya instituti, Prinston universiteti, Yaponiyaning Xamaki universiteti, Xitoyning Pekin universiteti, Janubiy Koreyaning Seul milliy universitetida Umumta'lim maktablarida ta'lim sifati monitoringi ahamiyatini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim sifati tushunchasining kelib chiqishi tarixi bilan shug'ullangan V.I.Zvonnikov aynan ta'lim sifati atamasi qadimgi davrda ishlatilmagan bo'lsada, shu ma'noni anglatuvchi ta'riflar bo'lganligini ta'kidlaydi. Jumladan, M.V.Martinenko, L.D.Maslova, D.Sh.Matros, V.N.Pugach va N.F.Yefremovalar o'z tadqiqotlarida «ta'lim sifati» tushunchasi shakllanishining birinchi boshlang'ich davri qadimgi dunyo davlatlarida mavjud bo'lgan darvga borib taqaladi, degan fikrni aytishgan. Bugungi kunda mahalliy va xalqaro ilg'or tajribalar ta'lim sifati quyidagi asosiy pedagogik tamoyillarga javob berishini belgilab bermoqda: ta'lim dasturlarining ta'lim oluvchilarning, kadr iste'molchilarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi xususiyatlarga ega bo'lishi;

ta'lim mazmuni va faoliyat shaklining tizimlilik, yaxlitlik, ko'p variantlilik, muqobillilik, bir muammoni hal qilishda turli xildagi ko'p fikrlilik va bir necha yechimlarni izlab topishga yo'naltirilganligi; mazmunning muammoli va hamkorlikdagi ta'lim tamoyillariga asoslanganligi, ta'lim-tarbiya jarayonida ishtirokchilarning o'zaro samarali muloqot hamkorligi yo'lga qo'yilganligi; ta'lim oluvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchisi sifatidagi faolligi, mustaqilligi, o'z-o'zini rivojlantirishdagi ijodiy faoliyati, o'zini-o'zi baholay olishi va boshq. Sifat monitoringi (quality monitoring) sifatning u yoki bu mezonlari va indikatorlarini bevosita baholash yoki kuzatish protseduralarini ko'zda tutadi, sifat "darajasi"ni aniqlaydi, shuningdek, moddiy sarf-harajatlarning samaradorligini baholash bilan ham bog'liq bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim sifati mummolariga doir ingliz tilidagi nashrlarda qator bosqichlardan (rejalashtirish, baholash va monitoring, tahlil va boshqa bosqichlar) iborat ham tashqi, ham ichki baholashni - keng ma'nodagi sifatni baholash sistemasini anglatuvchi "quality assessment" atamasi ko'proq ishlatiladi. Tor ma'noda sifatni baholash protseduralarini belgilashda "quality evaluation", "quality audit", "quality judgement" kabi atamalar qo'llaniladi. Shuningdek, Yevropada sifatni ta'minlash yoki sifat kafolati tarzida tarjima qilinishi mumkin bo'lgan "quality assurance" atamasi ham ishlatiladi. Sifatni ta'minlash sistemasi baholash bilan bog'liq bo'lgan bosqichlardan tashqari ularni joriy etish bosqichlarini takomillashtirishga doir izdanish va qaror qabul qilish bosqichlarini ham qamrab oladi. Sifatni ta'minlash sistemasining eng muhim xususiyati uning davriyligi va takomillashib borishga moyilligidir. Ta'lim sifatini baholash mummosi hamma vaqt dolzarb bo'lgan, faqat keyingi yillarda bu masala yechimiga sistemali majmuaviy tarzda yondashila boshlandi. Chet el olimlari va amaliyotchilari ta'lim sifatini tadqiq qilish doirasida ta'lim sifati tushunchasining o'zini aniqlashtirmoqdalar, baholash mezonlarini ishlab chiqmoqdalar, yuqori sifatni ta'minlovchi omillarni tasniflamoqdalar, ta'lim sifatini boshqarish va monitoringi muammolarini o'rganmoqdalar. Ta'lim sifatini baholovchi nisbatan taniqli tizimlar Buyuk Britaniya, AQSH va Fransiyada qo'llanilmoqda. Buyuk Britaniyada bu kabi tizimlar 1948-yildan, AQSHda 1969-yildan,

Fransiyada esa 1979-yildan buyon mavjud. Ta'lim sifatini baholash milliy tizimi Chilida 1978 yildan amalda qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu tizimlarning barchasi muntazam ravishda kerakli axborotlarni yig'ish imkonini beradi. Boshqa mamlakatlarda bunday tizimlar nisbatan keyinroq paydo bo'ldi. Aksariyat MDH mamlakatlarida ta'lim sifatini baholovchi milliy tizimlarni ishlab chiqish 1990 yildan boshlangan. Bunday milliy baholovchi tizimlarning maqsadi ushbu tizim doirasidagi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajalarini aniqlashdan iborat.

Buning uchun quyidagilar zarur bo'ladi:

- ta'lim sohasidagi o'zlashtirish darajasini aniqlash;
- ta'lim oluvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash;
- ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishlari bilan bog'liq mavjud muammolarni aniqlash;
- o'zlashtirish bilan bog'liq omillarni aniqlash;
- o'zlashtirish dinamikasini yuritish.

Mamlakatlar darajasida qaraganda ham ishlab chiqilayotgan tizimlar turli-tuman bo'lib, metodikasi, usullari va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan keskin farq qiladi. AQSH ta'limiy jarayonlar sifatini baholash milliy tizimi (NAEP – National Assessment of Educational Progress)ning maqsadi bolalar va o'smirlarning o'qish, hisoblash va kommunikatsiya bo'yicha malakalarini baholashdan iborat. Ushbu baholash dasturlari:

- o'quv dasturlari bajarilishini ta'minlash;
- o'zlashtirish darajasini oshirish uchun teskari aloqani ta'minlash;
- ota-onalarni ma'lumot bilan ta'minlash;
- o'quv muassasasidagi o'zlashtirish darajalari haqida umumlashgan ma'lumotlarni olish;
- milliy statistikani shakllantirish uchun o'tkaziladi.

Fransiya milliy baholash tizimining maqsadi quyidagilardan iborat:

- o'quvchilar tomonidan fanlarni o'zlashtirish jarayonlarini baholash;

- o'qituvchilarga chora-tadbirlarni tanlashda ko'maklashish;
- o'qituvchilarga pedagogik faoliyatni rejalashtirishda ko'maklashish.

Buyuk Britaniyada umumta'lim sifatini nazorat qilish va baholash davlat va jamoatchilik organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bugungi kunda ko'pgina davlatlar tomonidan qiziqish bildirilayotgan ta'lim sifatini baholashning Buyuk Britaniya tizimi har bir ta'lim muassasasi tomonidan sifatli ta'limni ta'minlashning samarali ichki monitoringini tashkil etilishi va amalga oshirilishi, shuningdek, ta'lim muassasasining o'zida uning kafolatli mexanizmi amaliyotga kiritilishi bilan tavsiflanadi. Yaponiyada ham ta'lim sifatini baholash va akkreditatsiyalash jarayonlari boshqa rivojlangan davlatlar kabi o'zini-o'zi ko'rikdan o'tkazish, tashqi ekspertiza va qaror qabul qilishdan iborat bo'lib, ta'lim muassasasining faoliyatini umumiy baholash va alohida ta'lim dasturlarini baholash bo'yicha komissiyalar asosida amalga oshiriladi. Umumiy baholash ta'lim muassasasidagi ta'lim sifatini boshqarishning zamonaviy metodlari va ichki menejment samaradorligi tahlili asosida shakllantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI"
2. Чурина Л.А. Мониторинг учебной деятельности в инновационном образовательном учреждении как фактор рефлексивного управления: Дисс. ...канд. пед.наук:13.00.01 / Л.А.Чурина, -М., 2002.-190с
3. Майоров А.Н. Мониторинг в образовании. – М.: Интеллект-Центр, 2005 – 424 с.
4. Курбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим сифатини бошқариш. Т. «Турон-Иқбол». 2006. 196 бет.